

## UNIVERSITETDA TA'LIM JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISH, MA'NAVIIY MUHIT BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASHDA TYUTORNING O'RNI

*Umirzakov Zoyir Tayirovich*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi*

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti*

*Talabalar dekanati tyutori*

**Annotatsiya:** ushbu maqola universitetda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va ma'naviy muhitni barqarorlashtirishda tyutorlarning o'rnini tahlil qiladi. Maqolada tyutorlarning vazifalari, ularning talabalarga bo'lgan individual yondashuvi, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy tadbirlarni tashkil etishdagi roli hamda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Tyutorlar talabalar orasida o'zaro aloqa va muloqotni rivojlantirib, jamoaviy ruhni oshirishga yordam beradi. Ularning faoliyati nafaqat akademik muvaffaqiyatni ta'minlash, balki talabalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqola tyutorlik institutining universitet ta'limining sifatini oshirishdagi muhim rolini ochib beradi va ta'lim jarayonida ma'naviy muhitni mustahkamlashga qaratilgan amaliy tavsiyalarni taklif etadi.

**Kalit so'zlar:** tyutor, ta'lim jarayoni, talabalar, individual yondashuv, psixologik yordam, jamoaviy muhit, shaxsiy rivojlanish, axloqiy qadriyatlar, talabalar munosabati, ta'lim sifatini oshirish

**Аннотация:** в данной статье анализируется роль тьюторов в эффективной организации учебного процесса и стабилизации нравственной среды в вузе. В статье рассматриваются обязанности тьюторов, их индивидуальный подход к студентам, академическая и психологическая поддержка, их роль в организации общественных мероприятий, их значение в формировании нравственных ценностей. Преподаватели помогают воспитывать командный дух, способствуя взаимодействию и общению между учениками. Их деятельность не только обеспечивает академические успехи, но и положительно влияет на личностное и социальное развитие студентов. В данной статье раскрывается важная роль института репетиторства в повышении качества университетского образования и предлагаются практические рекомендации, направленные на укрепление духовной среды в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** тьютор, образовательный процесс, студенты, индивидуальный подход, психологическая поддержка, коллективная среда,

развитие личности, моральные ценности, отношения студентов, повышение качества образования.

**Abstract:** this article analyzes the role of tutors in the effective organization of the educational process and stabilization of the moral environment at the university. The article examines the duties of tutors, their individual approach to students, academic and psychological support, their role in organizing social events, and their importance in the formation of moral values. Tutors help foster team spirit by fostering interaction and communication among students. Their activities not only ensure academic success, but also have a positive effect on the personal and social development of students. This article reveals the important role of the tutoring institute in improving the quality of university education and offers practical recommendations aimed at strengthening the spiritual environment in the educational process.

**Key words:** tutor, educational process, students, individual approach, psychological support, collective environment, personal development, moral values, students' attitudes, improving the quality of education.

Har bir oliy ta'lim muassasining talabasi uning farzandi kabidir. Ota-ona o'z bolalari uchun doimo qayg'urgani singari bugun ta'lim muassasalari ham talabalarning ilm olishi, kelgusi faoliyatini to'g'ri belgilashiga mas'ullikni his etadi. Talabaga ta'lim berish bilan birga, darsdan bo'sh vaqtda nimalar bilan bandligi, qanday muhitda yashashi, uning fanlardan tashqari qiziqishlari — hammasi oliy o'quv yurti uchun muhim. Xo'sh, bu jarayonda o'tgan davrlarda oliy ta'lim muassasasi qanday ishlarni amalga oshirgan? Ma'lumki, yaqin yillargacha OTMlarda murabbiylik tizimi asosida ish olib borilardi. Bunda murabbiylik tizimi professor-o'qituvchi xohlasa-xohlamasa majburiy yuklama sifatida akademik guruhlariga biriktirilgan. Bu majburlov yuklamasidan tashqari, o'qituvchi sifatida o'zining katta mas'uliyati ham turgan. O'qituvchi bir kunda uch para darsi bo'lsa, biriktirilgan guruhlariga faqatgina tanaffus vaqtida eshikdan mo'ralab yoki guruh sardoridan shunchaki “kim bor, kim yo'q”ligini bilish, “nima muammo bor” deb so'rashdan ko'p uzoqlashmagan. Bugun ham oliy o'quv yurtlarida talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashuvchi murabbiylar ish olib bormoqda. Biroq endilikda ular guruh murabbiyi emas, balki tyutor maqomida. Tabiiyki, ularning vazifalari ham avvalgilaridan farq qiladi. Respublika davlat oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik tizimi joriy qilinganiga ko'p bo'lmadi. Prezidentimizning **2019-yil 8-oktyabrdagi** “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni hamda shu asosida qabul qilingan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining **2021-yil 30-sentyabrdagi** buyrug'i va Nizomi yangicha tizimga asos bo'lgan edi. Hozirgi globallashuv sharoitida barcha sohalarning tayanchi, fundamenti

— ta'limga borib taqaladi. Shu jihatdan, zamon talablariga mos, irodali, har tomonlama mulohazali, manfaatlari bunyodkorlik g'oyasiga qaratilgan yosh kadrlarni tarbiyalash bugungi kun ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi. Tyutorlik tizimi ham ana shu maqsadlarga yo'naltirilgan. U oliy ta'lim muassasasida tarbiya jarayonini tizimli va samarali amalga oshirishning muhim shakli va vositasidir. Tyutor esa talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, ta'lim muassasasi, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishiga ko'maklashuvchi pedagog bo'lib, u yigit-qizlarni kasbga yo'naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o'rganib, ularga atroflicha echim topish bilan shug'ullanadi. Har qanday yangilik kabi bu yo'nalishning ham kelib chiqish tarixi bor. Ko'p manbalarda ta'kidlanishicha, dastlabki tyutorlar XII asrda Angliyaning Oksford va Kembrij universitetlarida paydo bo'lgan. Atama ingliz tilidan olingan va **“uy o'qituvchisi, o'qituvchi, murabbiy, vasiy”** degan ma'nolarni anglatadi. **“Tyutorlik”** so'zi **insonning shaxsiy ta'limini qo'llab-quvvatlashni** anglatadi. Bu juda nozik, **“xususiy”** ish faoliyatidir. Tyutor — talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, universitet, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishiga ko'maklashuvchi inson bo'lib, u yigit-qizlarni kasbga yo'naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o'rganib, ularga atroflicha yechim topish bilan shug'ullanadi. tyutorlarning asosiy maqsadi — ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda universitet va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, talabalarning universitet hayoti va ta'lim jarayoniga moslashishiga ko'maklashish, ularga uslubiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish va talabalarda tanlagan kasbiga muhabbatni oshirishdir. Shu bilan birga ular yigit-qizlarning dars mashg'ulotlarini muntazam tahlil qilib boradi va sifatini oshiradi, ularning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishini ta'minlaydi hamda ijtimoiy ahvolidan doimiy xabardor bo'lib turadi. Tyutorlar ma'naviy-ma'rifiy va ahloqiy-tarbiya, o'quv va o'quv-uslubiy hamda ilm-fan, innovatsion va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida o'z faoliyatini olib boradi. Har bir tyutor o'ziga biriktirilgan guruh talabalarini besh muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan klub va to'garaklarga jalb etib boradi hamda ularning ijodiy qobiliyati va iste'dodini namoyon etishi uchun imkon yaratadi. Talabalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi, ularning ta'lim olishi, ilm bilan shug'ullanishi, yashashi va dam olishi uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashadi va bu boradagi yangiliklardan xabardor qilib boradi.

Shuningdek, yigit-qizlarning o'quv intizomini mustahkamlash, ularda ijodiy fikrlash, halollik, to'g'ri so'zlik kabi xislatlarni shakllantirish borasida tizimli ishlarni

yo'lga qo'yadi. Iqtidorli va iste'dodli talabalarni aniqlab, ularning turli tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga hamda talabalarning loyiha va startaplarini amalga oshirishga ko'maklashadi. Har bir tyutor o'ziga biriktilgan akademik guruhlarining darslarini, talaba davomatini va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish, talabalarga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish, TTJga joylashishi uchun e'lon berish va bu boradagi komissiya yig'ilishida talabani ishtirokini ta'minlash, talabaga tavsifnoma va akademik ta'til berish masalasini hal qilishda ishtirok etish, ularni rag'batlantirilishi yoki jazolanishi, turli stipendiyalarga tavsiya qilishda xulosa va fikrnoma berish huquqiga ega.

Quyida tyutorning o'rnini ko'rsatadigan bir necha asosiy jihatlar keltirilgan:

**1. Individual yondashuv:** tyutorlar har bir talabani individual ehtiyojlarini hisobga olib, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Bu yondashuv talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

**2. Ma'naviy qo'llab-quvvatlash:** tyutorlar talabalarga ma'naviy va psixologik jihatdan yordam berish orqali ularning stress darajasini pasaytirishi, o'zaro munosabatlarni yaxshilashi va ijtimoiy muhitni barqarorlashtirishi mumkin.

**3. Akademik yordam:** ta'lim jarayonida tyutorlar talabalarni fanlardan qo'llab-quvvatlash, ularni motivatsiya qilish va bilim olish jarayonida yo'l-yo'riq ko'rsatish bilan shug'ullanadilar.

**4. Ijtimoiy faoliyatlarni tashkil etish:** tyutorlar turli ijtimoiy tadbirlar, seminarlar va treninglar tashkil etish orqali talabalar o'rtasida hamkorlik va jamoaviy ruhni rivojlantirishga yordam beradi.

**5. Muammolarni hal etish:** talabalar o'z muammolari bilan murojaat qilganda, tyutorlar ularga yechim topishda yordam berishadi. Bu, o'z navbatida, ma'naviy muhitni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

**6. O'zaro aloqa va muloqot:** tyutorlar talabalarning o'zaro aloqalarini yaxshilashga yordam berish orqali jamoaviy ruhni oshiradi. Bu, o'z navbatida, universitetdagi ijtimoiy muhitni mustahkamlaydi.

**7. Etika va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish:** tyutorlar talabalar orasida axloqiy qadriyatlarni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Har bir tyutor talabalarning sha'ni va qadr-qimmatini, obro'sini hurmat qilish, ularning jismoniy, ruhiy va psixologik holatidan muntazam xabardor bo'lish, o'quv, ma'naviy va ilmiy faoliyatini monitoring qilib borish, yigit-qizlarning darslarda ishtirokini nazorat qilish, yoshlarning ota-onalari va o'zi bilan doimiy muloqot qilib borishga majburdir. Universitetda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va ma'naviy muhitni barqarorlashtirishda tyutorlarning roli juda muhimdir. Ular talabalar uchun

qo'llab-quvvatlash tizimini yaratadi va ularning muvaffaqiyatli rivojlanishiga ko'maklashadi. Tyutorlar nafaqat akademik bilimlarni berish, balki talabalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishlariga ham yordam beradilar. Shunday qilib, tyutorlik instituti universitet ta'limining sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. <https://yuz.uz/uz/news/tyutor-kim>
2. <https://yuz.uz/uz/news/tyutor--talaba-uchun-komakchi>
3. <http://manaviyat.tstu.uz/wp-content/uploads/2021/10/Tyutorlik-faoliyatini-tashkil-etish-boyicha-Nizom.pdf>